



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/oiss>

## INTERNAL POLITICAL SITUATION IN EGYPT IN THE POST-ARAB SPRING PERIOD: RELIGION AND STATE RELATIONS

*Altinoy A. Nomozova*

*Master's student*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** "Arab Spring", religion and state relations, "Muslim Brotherhood", Tahrir, protest, secular politics.

**Received:** 28.04.24

**Accepted:** 30.04.24

**Published:** 02.05.24

**Abstract:** This article reveals the internal political processes that took place in Egypt after the "Arab Spring" incident in the Arab world in 2011, the resignation of H. Mubarak, who has been in power for a long time in Egypt, and the subsequent struggle for power. In particular, the article covers the politics of President M. Morsi and the processes of Abdulfattah Al-Sisi's coming to power.

## MISRDA "ARAB BAHORI" DAN KEYINGI DAVRDA ICHKI SIYOSIY VAZIYAT: DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI

*Oltinoy A. Nomozova*

*Magistratura talabasi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universitet*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** "Arab bahori", din va davlat munosabati, "Musulmon birodarlari", Tahrir, norozilik, dunyoviy siyosat.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola 2011-yilda arab olamida yuz bergan "Arab bahori" hodisasidan keyin Misrda yuz bergan ichki siyosiy jarayonlar, uzoq yillik Misrda hokimiyatda turgan X.Muborakning istefoga ketishi va undan keyingi hokimiyat uchun kurash olib berilgan. Xususan, maqlolada prezident M.Mursi siyosati hamda Abdulfattoh As-Sisisning hokimiyatga kelish jarayonlari yoritilgan.

## ВНУТРИПОЛИТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В ЕГИПТЕ В ПЕРИОД ПОСЛЕ АРАБСКОЙ ВЕСНЫ: РЕЛИГИЯ И ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ОТНОШЕНИЯ

**Алтиной А. Номозова**

*студент магистратуры*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** «Арабская весна», религия и государственные отношения, «Братья-мусульмане», Тахрир, протест, светская политика.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются внутриполитические процессы, происходившие в Египте после инцидента «арабской весны» в арабском мире в 2011 г., отставки Х. Мубарака, долгое время находившегося у власти в Египте, и последующей борьбы за власть. В частности, в статье освещается политика президента М.Мурси и процессы прихода к власти Абдулфаттаха Ас-Сиси.

### KIRISH

Yaqin Sharq mintaqasi, xususan, arab olimi bugungi kunda o‘zining kechkin siyosiy jarayonlari bilan ajralib turadi. Mintaqada kuchli geosiyosiy raqobat va inqiroz, siyosiy tizimning an’anaviy shakli va o‘zgaruvchanligi o‘rtasida muvozanat nozik masala hisoblanadi. So‘nggi yillarda Yaqin Sharqdagi yetakchi kuch markazlaridan biri bo‘lgan Misrdagi siyosiy jarayonlar, din va davlat munosabatlari, tashqi siyosati dolzARB tadqiqot ob’ektiga aylanmoqda.

### ASOSIY QISM

AQShlik siyosatshunos Farid Zakariyaning fikricha, “Arab bahori”ning natijalari XIX asrdagi fransuz burjua inqiloblari seriyasi natijalariga o‘xshaydi va pirovardida arab mamlakatlarida inqilobi tashabbuslarga chek qo‘ygan reaktsion rejimlar o‘rnini boshqaruvning demokratik shakllari egallaydi. Muallif reaktsion rejimlar sifatida birinchi navbatda Suriya va Misrni nazarda tutgan edi[1].

Maqlolada tarixiy tahlil, qiyoslash, content tahlil singari metodlardan foydalanilgan.

2011-yilda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada “Arab bahori”ning yuz berishi mintaqada davlatlarida ichki va tashqi siyosat doir bir qator masalalarni qayta ko‘rib chiqilishiga olib keldi. “Arab bahori” natijasida Misrda 2011-yilning 25-yanvaridan 11-fevraligacha davom etgan inqilobi harakat natijasida, dastlab bosh vazir, keyinchalik esa prezident bo‘lmish H. Muborak hokimiyatdan ketishga majbur bo‘ldi. Bu bevosita Misrda ko‘p yillardan beri yig‘ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning hosilasi edi. Shu bilan birga tashqi kuchlarning ta’sirini ham hisobga olish zarur (Al-Jazira telekanali, “Feysbuk” va “Twitter” texnologiyalari)dir.

Misrda X.Muborak erasidan keyingi davrdagi ichki siyosiy vogeliklar bevosita din va davlat munosabatlari o‘rtasidagi nozik chegaraga daxl qila boshladi. Bu davrda Misrdagi ijtimoiy hayotda “Musulmon birodarlar” tashkilotining ta’siri keskin o‘sdi. 2012-yil iyun oyida “Musulmon birodarlar” uyushmasi vakili Muhammad Mursiy Misrning demokratik yo‘l bilan saylangan birinchi prezidenti bo‘ldi. Garchi prezidentlik davri qisqa bo‘lsada, Misrdagi tashkilotning nufuzini ma’lum ma’noda belgilab berdi. Aynan shu davrda Misrning kelajagi borasida jiddiy xavotirlar yuzaga keldi, davlat va jamiyatning diniylashuv xavfi yuzaga keldi.

Prezident sifatida Muhammad Mursiy X.Muborakdan keyin mamlakatdagi og‘ir ijtimoiy-siyosiy holatni qabul qilib oldi. Shu birga asosiy e’tiborni hokimiyatini mustahkamlashga qaratdi. Boisi Misrda diniylik bilan bir qatorda dunyoviy tarafdarlari ham ko‘pchilikni tashkil etardi. Muhammad Mursiyning hokimiyat tepasiga kelishi bilan Misr tashqi siyosatida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Yangi prezident Misrni islom olamiga yo‘naltirish yo‘nalishini belgilab oldi[2].

2012-yil 22-noyabrda M.Mursiy sndlarni parlament yuqori palatasi va Konstitutsiyaviy assambleyani tarqatib yuborish vakolatidan mahrum qiluvchi konstitutsiyaviy deklaratsiyani imzoladi, shuningdek, mamlakat prezidentiga “inqilobni himoya qilishga qaratilgan har qanday farmonlar” chiqarishga ruxsat berdi va bu borada sudga shikoyat qilish mumkin emasligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bunday harakatlar Muhammad Mursiyning siyosatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi, hokimiyatni tortib olish va diktaturani tiklashda ayblagan muxolifatning ma’lum ma’noda g’azabini qo‘zg’atdi. 2012-yil 25-noyabr kuni deklaratsiyaga qarshi namoyish chog‘ida M.Mursiyni qo‘llab-quvvatlagan tarafdarlari va muxoliflari o‘rtasidagi to‘qnashuvda bir o‘smir halok bo‘ldi. Shu paytdan boshlab amaldagi prezidentning reytingi tez tushib keta boshladi[3].

Prezident M.Mursiyning asosiy xatolaridan biri aynan Konstitutsiyani yangilashga urinishi bo‘ldi. 2012-yil dekabrida konstitutsiya bo‘yicha referendumdan keyin M.Mursiy tomonidan yangi konstitutsiya imzolandi. Konstitutsiya Misr jamiyatining hech bir tomonini to‘liq qoniqtira olmadi: harbiylar hali ham eng keng vakolatlarga ega edi, liberallar shariat qonunlari adliya tizimining asosi sifatida mustahkamlanganidan norozi edilar, salafiylar (salafiya tarafdarlari) ilk musulmonlar jamoasining turmush tarziga qaytish hamda Qur'on va Sunnatga qat'iy rioya qilish zarurligi haqidagi ta’limotlarni ilgari suruvchilar konstitutsiyani juda ham dunyoviy deb hisobladilar[4].

2013-yil aprel oyining oxirida “Tamarrud” harakati (arab tilidan tarjima qilinganda “qo‘zg‘olon” degan ma’noni anglatadi) tashkil etildi, uning dastlabki vazifasi 2013-yil 30-iyunga qadar Muhammad Mursiyning iste’fosi uchun misrliklarning 15 million imzosini toplash edi. 2013-yil 29-iyunga kelib Tamarrud harakati faollari 22 million imzo to‘plashga muvaffaq bo‘ldi.

Millionlab misrliklar imzolagan petitsiyada “Musulmon birodarlar”ning eng dolzARB muammolarni hal etishdagi barcha siyosiy muvaffaqiyatsizliklari yaqqol aks etgan edi[5].

Beloruslik tadqiqotchi A.Kondral fikricha, Musulmon birodarlar” muxolifat harakati sifatida barqaror va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishganiga qaramay, “Musulmon birodarlar” hukmron kuch sifatida muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 2013-yil yozda M.Mursiyning prezidentlikdan ag‘darilishi harbiy to‘ntarish tarzida bo‘lib o‘tdi, to‘ntarishni nafaqat oddiy misrliklar, balki mamlakatning yetakchi siyosiy kuchlari ham qo‘llab-quvvatladilar[6].

Abdulfattoh as-Sisi 2014-yildan buyon Misr prezidenti lavozimida faoliyat ko‘rsatadi. Abdulfattoh as-Sisi dastlab to‘rt yillik prezidentlik muddatiga saylangan, keyin esa 2018-yilda qayta saylangan. 2019-yilda Misr Konstitutsiyasiga prezidentlik muddatini olti yilga uzaytirish bo‘yicha tuzatishlar kiritilgan. Misrda prezidentlik saylovulari 2023-yil 10-12 dekabr kunlari bo‘lib o‘tdi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, Misrning amaldagi rahbari Abdulfattoh as-Sisi mamlakatdagi prezidentlik saylovlarida 89,6 foiz ovoz bilan g‘alaba qozondi. Bu amalda Abdulfattoh as-Sisining uchinchi muddatga saylanishi hisoblanadi. Hokimiyat tepasiga Abdulfattoh As-Sisining kelishi bu bevosita X.Muborak davridagi status-kvoning tiklanishi deyish mumkin.

Prezident Abdulfattoh as-Sisi ma’muriyati davrida ichki siyosatda bir qator islohotlar amalga oshirildi. Ulardan muhim yo‘nalishi din sohasidagi siyosatdir.

Rossiya strategik tadqiqotlar instituti hodimi A.Xizriev keltirishicha, zamonaviy Misrning diniy muassasasi bir necha guruhlarga bo‘lingan[7].

- *Birinchisi*, shartli ravishda "rasmiy" eng yirik Al-Azhar ilohiyot universiteti bilan bog‘liq bo‘lib, bu muhitdan jamoat arboblari - Misr muftiylari, televideenie voizlari va notiqlar chiqadi. "Rasmiy" guruh amaldagi hukumat rejimi bilan hamkorlik qilishga va uning qarorlarini qo‘llab-quvvatlashga intiladi.

- *Ikkinchisi*, oppozisiya tomon – esa “salafiyalar” va “doimiy jihod” tarafdrorlari tashkil etadi, ular dunyoviy davlat doirasida sof islom mavjudligini inkor etadilar. Misr hukumati bu guruh faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bostirmaydi, balki uning rahbarlarini kuzatib boradi va agar terrorchilik xurujlarini uyshtirish, hukumatga qarshi yashirin guruhlarni bevosita qo‘llab-quvvatlasa va mavjud hukumatga qarshi chiqish kabi muayyan harakatlar amalga oshirilsa, bunday harakatlar tugatiladi.

Misr prezidenti Abdulfattoh as-Sisining Misr hayotida islomning o‘rnini borasida o‘z qarashlari mavjud, u an'anaviy "salafiyalar" nuqtai nazariga zid hisoblanadi. Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi mavjud siyosiy sharoidtan kelib chiqib, radikal islom bilan bog‘liq ba‘zi muammolar borasida o‘z qarashlarini bildirib o‘tgan. Uning “Dunyo bo‘ylab 1,5 milliard

musulmon qolgan 7 milliard musulmon bo'limganlarni o'ldirishga intilmasligi kerak" va o'rta asrlarda shakllangan qarashlardan voz kechish kerak[7], fikrlari Misrda dunyoviy boshqaruv rejimini davom ettirish siyosatini ko'rsatib berdi.

Bundan tashqari Misr jamiyatining diniy hayoti so'nggi paytlarda "Musulmon birodarlar"ning ichki siyosiy hukmronligi davridagidek mojarolarga boy bo'limgan. Vaziyat IshID harakatining vujudga kelishi, mintaqada terroristik harakatlarning faollashuvi, mintaqaviy ekstremizmning jadal rivojlanishi bilan murakkablashmoqda, biroq diniy va hukumat institutlari o'rtasidagi to'g'ri hamkorlik natijasida Misrda mamlakat ichida terrorchilik tarmoqlari tarqalishining oldini olish va dinlararo totuvlikka erishish uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lib, hozirgi hukumat bu masalaga katta e'tibor qaratmoqda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, "Arab bahori"dan keyingi davrda Misrda ichki siyosiy vaziyat qisqa muddatda notinch va turli noroziliklarga boy bo'ldi va quyidagicha holatni quyidagicha xarakterlash mumkin:

**Birinchidan,** Misr ijtimoiy hayotida katta ta'sirga ega bo'lgan "Musulmon birodarları" tarixda ilk bor demokratik yo'l bilan hokimiyat tepasiga keldi.

**Ikkinchidan,** Misrda rivojlanishning din va dunyoviy yo'li o'rtasida kurash holati kuzatila boshlandi.

**Uchinchidan,** "Musulmon birodarları" vakili prezident M.Mursining davlat boshqaruvidagi tajribasi yetarli emasligi va jamiyat va davlat ichida muvozanatni saqlay olmaganligi, uning tarafdorlari va muxolifatlarini ham birdek qoniqtira olmadi.

**To'rtinchidan,** Prezident sifatida Abdulfattoh As-Sisining saylanishi Misr ichida barqarorlikni ta'minladi va Misr halqining dunyoviy rivojlanishiga bo'lgan intilishlarini ifodalab berdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. The Arab Spring at Five: Updates On Tunisia, Egypt, and Turkey // Foreign Affairs. 08.02.16. URL: <https://www.foreignaffairs.com/audios/2016-02-08/arabspring-five-updatestunisia-egypt-and-turkey>
2. Египет: «Арабская весна» 10 лет спустя - причины и последствия // Высшая школа экономики - <https://we.hse.ru/irs/news/444777487.html>
3. Видясова М. Ф., Гасанбекова Т. И. Двуликий Янус умеренного исламизма. Послереволюционная борьба в Тунисе и Египте. –М., 2013. –С.59.

4. Egypt: New Constitution Mixed on Support of Rights Draft Adopted Without Consensus Amid Political Crisis. // URL: <https://www.hrw.org/news/2012/11/30/egypt-new-constitution-mixed-support-rights>

5. Егорова О.А. Правление Мухаммеда Мурси в Египте: исторические уроки // Право и политика. – 2017. –№.11. -С.50

6. Кондраль А.А. Основные политические силы Египта и их отношения с президентом М.Мурси в 2012-2013 гг. // Журнал Белорусского государственного университета. История. –2019. –№4. –С.74. - <https://journals.bsu.by/index.php/history/article/view/706/920>

7. Хизриев А. Внутренняя политика Египта: 5 лет после революции тахрира // <https://cyberleninka.ru/article/n/vnutrennyaya-politika-egipta-5-let-posle-revolyutsii-tahrira>